

## MINTAQAVIY RIVOJLANISHDA EKOLOGIK OMILLARNI HISOBGA OLIHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.

**Barnoqulova Marjona Otabek qizi**

Sarvon universiteti o'qituvchisi

ORCID: 0009-0007-1334-6819

E-mail: [barnoqulovamarjona@gmail.com](mailto:barnoqulovamarjona@gmail.com)

### Annotatsiya

Mazkur maqolada mintaqaviy rivojlanishda ekologik omillarni hisobga olishning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilindi. Tadqiqotda hududiy iqtisodiy rivojlanish jarayonida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muvozanatni saqlash va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash masalalari ko'rib chiqildi. Mintaqalarning iqtisodiy salohiyati, resurslardan foydalanish darajasi va ekologik boshqaruv mexanizmlari o'rganildi. Tahlil natijalari ekologik omillarni iqtisodiy rivojlanish strategiyasiga integratsiya qilish hududiy barqarorlikni ta'minlash va resurslardan samarali foydalanishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari mintaqaviy siyosat va yashil iqtisodiyot tamoyillarini rivojlantirishda amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** mintaqaviy rivojlanish, ekologik omillar, iqtisodiy samaradorlik, barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, ekologik boshqaruv, tabiiy resurslar.

### Аннотация

В статье проанализирована экономическая эффективность учета экологических факторов в региональном развитии. В исследовании рассмотрены вопросы рационального использования природных ресурсов, сохранения экологического баланса и обеспечения устойчивого экономического роста регионов. Проанализированы экономический потенциал территорий, уровень использования ресурсов и механизмы экологического управления. Результаты исследования показали, что интеграция экологических факторов в стратегию регионального развития способствует устойчивости территорий и повышению эффективности использования природных ресурсов. Полученные выводы имеют практическое значение для совершенствования региональной политики и развития принципов зеленой экономики.

**Ключевые слова:** региональное развитие, экологические факторы, экономическая эффективность, устойчивое развитие, зеленая экономика, экологическое управление, природные ресурсы.

### Abstract

This article analyzed the economic efficiency of considering environmental factors in regional development. The study examined the issues of rational use of natural resources, maintaining ecological balance, and ensuring sustainable economic growth in regions. The economic potential of territories, the level of resource utilization, and environmental management mechanisms were analyzed. The results demonstrated that integrating environmental factors into regional development strategies contributes to regional sustainability and improves the efficiency of natural resource use. The findings provide a theoretical basis for strengthening regional policy and promoting the principles of a green economy.

**Keywords:** regional development, environmental factors, economic efficiency, sustainable development, green economy, environmental management, natural resources.

## **KIRISH**

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash bilan bir qatorda, ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish, hududlarning mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish hisobiga mintaqa aholisi turmush sifati va darajasini oshirish, shuningdek mahalliy byudjet daromadlari barqarorligiga erishish asosiy ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Davlatning mintaqaviy iqtisodiy siyosat yuritishidan maqsad bu hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini nazorat qilishdir. Bu siyosiy tizimning asosiy vazifasi hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yuzaga keladigan tafovutlarni kamaytirish, aholining turli qatlami o'rtasida ne'matlarning taqsimlanishi darajasidagi farqni eng kam darajaga keltirish, hukumatning boshqaruv vazifalarini kamaytirib, mahalliy organlarning o'z-o'zini boshqarish vakolatlaridan foydalanilgan holda o'z muammolarini hal etishni yo'lga qo'yish shular jumlasiga kiradi. Mintaqaviy siyosatning maqsadi mamlakatning yaxlit ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xalaqit beradigan, ijtimoiy kelishmovchiliklarning paydo bo'lishiga xizmat qiladigan hududiy notengliklarni bartaraf etishdan iborat. Mintaqaviy siyosat keng ma'noda mamlakat hududlarining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini boshqarish bo'yicha hokimiyat organlarining maqsad va vazifalari hamda ularni amalga oshirish mexanizmini ifodalaydi. Islohotlarni yanada chuqurlashtirish va erkinlashtirish, barqaror rivojlanishga erishishda ko'p jihatdan mamlakat ichki mintaqalari taraqqiyotiga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Hozirgi davrda ishlab chiqarishni to'g'ri hududiy tashkil qilish, mintaqalarning tabiiy-iqtisodiy resurslaridan samarali foydalanish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) BMT boshchiligidagi uzoq, ko'p tarmoqli va ishtirokchi jarayon tomonidan ishlab chiqilgan maqsadlardir. BRM 2030-yilgacha ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilgan. BRM lari 2015-yilda BMT Bosh Assambleyasi chog'ida qabul qilingan - global harakatlar rejasi bo'lgan 2030-yilgi kun tartibining bir qismidir. 17 ta BRM ga qo'shimcha ravishda, 5 ta vazifa: Odamlar, Sayyora, Farovonlik, Hamkorlik va Tinchlik asosida barqaror rivojlanishni belgilaydi. Har bir BRM ham o'ziga xos maqsadlarga ega. Mamlakatimiz mintaqalar barqaror rivojlanishining iqtisodiy jihatlariga e'tibor qaratar ekanmiz, mintaqalarning iqtisodiy salohiyatidagi tafovutlar bir qator obyektiv sabablar – bozor islohotlarining dastlabki davridagi mintaqaviy rivojlanish darajasi, mintaqaning investitsion jozibadorligi, iqtisodiy-geografik rivojlanishi, infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi, innovatsion salohiyati va boshqa ko'pgina omillar bilan izohlanadi.

## **ADABIYOTLAR SHARHI**

Iqtisodchi geograf va mintaqashunos olim I.A.Rodionova "mintaqaviy iqtisodiyot iqtisodiyotdagi geografik (hududiy) yo'nalish, ishlab chiqarish kuchlari va rayonlar rivojlanishining xususiyatlari va qonuniyatlarini o'rganuvchi fan, deb hisoblaydi. Bir

guruh olimlar “mintaqaviy iqtisodiyot” va “mintaqa” tushunchasiga shunday ta’rif beradilar: “Mintaqaviy iqtisodiyot mamlakat milliy iqtisodiyotining tarkibiy qismini anglatadi. Milliy iqtisodiyot esa jahon xo‘jaligi yoki iqtisodiyoti tizimining bir qismidir. Mintaqaviy iqtisodiyot, odatda, mamlakat ichida ajratiladigan iqtisodiy rayonlar yoki viloyatlar darajasiga mos keladi. Mintaqaviy iqtisodiyotda “mintaqa” tushunchasi tabiiy geografiyada qo‘llaniladigan mintaqa (zona)dan farq qiladi va aynan uning tarjimasini emas. Ma’lumki, tabiiy geografiyadagi, masalan, iqlim mintaqalari yer yuzida kenglik bo‘ylab cho‘zilib, tasmaimon birin-ketin, tartibli joy olgan. Mintaqaviy iqtisodiyotda esa bu tushuncha ko‘proq “hudud” ma’nosini anglatadi va uning shakli, tashqi qiyofasi (konfiguratsiyasi) turlicha bo‘ladi”. Umuman olganda, mintaqaviy iqtisodiyot tabiiy-iqtisodiy va boshqa omillarni mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirish bilan bevosita bog‘lab o‘rganadi.

Ko‘p yillar iqtisodiy geografiya sohasida ilmiy tadqiqot ishi olib borgan Yu.G.Saushkinning fikriga ko‘ra “elektr energiya olish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab-chiqarish uchun foydalanishi mumkin bo‘lgan tabiiy komponentlarni va sanoat uchun xomashyolarni” tabiiy resurslar deb ta’riflaydi va asosiy e’tiborni iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda xomashyo sifatida ishlatilayotgan tabiiy resurslar zaxirasi va undan samarali foydalanishga qaratgan. L.D. Badriyevaning e’tirof etishicha, “hududiy resurs salohiyatidan samarali foydalanish deganda hududning resurslarni jalb etish darajasi va mazkur resurslarni qo‘llash natijasida amalga oshiriladigan texnologik jarayonlarning samaradorligi” tushuniladi. Ushbu tadqiqot ishida iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy usullarini muvaffaqiyatli amalga oshirgan turli mintaqalardagi amaliy tadqiqotlarni tahlil qilib, sifatli tadqiqot metodologiyasidan foydalanildi. Ma’lumotlar hududiy statistika hisobotlaridan akademik jurnallardan, va ushbu soha bo‘yicha mutaxassislar bilan suhbatlardan to‘plandi. Bugungi kunda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish uchun bir qancha zamonaviy usullar mavjud.

## **METODOLOGIYA**


Tadqiqotda mintaqaning iqtisodiy va ekologik statistik ma’lumotlari tahlil qilindi. Tadqiqot aralash yondashuv (mixed-methods) asosida olib boriladi, ya’ni sifat (qualitative) va miqdoriy (quantitative) usullar integratsiyalashgan holda qo‘llaniladi. Bunday yondashuv ekologik jarayonlarning murakkabligi va hududiy xususiyatlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Mazkur metodologiya ekologik muammolarni hududiy va raqamli yondashuv asosida chuqur tahlil qilish imkonini beradi. GIS, masofaviy zondlash va sun’iy intellekt asosidagi metodlar ekologik monitoring aniqligi va boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Murakkab ekologik vaziyatli hududlarni davlat tomonidan qo‘llab quvvatlanishining xorijiy tajribasi va mintaqa rivojlanish strategiyasini shakllantirish asosida hududlar iqtisodiy barqarorligini ta’minlash vositalarini chuqur tadqiq etishni talab etadi. Mamlakatimizda yuz berayotgan iqtisodiy munosabatlarni isloh qilish va xo‘jalik yuritishning yangi bozor sharoitlarining rivojlanish jarayonlari ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish, hududiy iqtisodni boshqarish tamoyil va usullariga

yangicha yondashuvni talab etadi. Jahon bozoridagi integrasiyalashuv jarayonlari natijasida mintaqalar ham ekologik muammolarning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyati va ishlab chiqarish imkoniyatlarining sifat hamda miqdoriy ko'rsatkichlari nuqtai nazaridan sezilarli o'zgarishlarga duch keldi. O'zbekiston iqtisodiy tizimi transformatsiyasi institutsional o'zgarishlarni amalga oshirish va shakllanayotgan raqobatli bozorlar talablariga mos ravishda hududlarning resurslaridan samarali foydalanish va ishlab chiqarishni joylashtirishga ekologik muammolarga tizimli yondashuvni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda mintaqalarning rivojlanish darajasi, tarmoqlar tarkibi, mehnat resurslari bilan ta'minlanganligi kabi xususiyatlari hisobga olinmoqda. Mana shuning uchun ham, har bir mintaqani majmual iqtisodiy rivojlantirish mexanizmining ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish bevosita ham ilmiy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi (1-rasm).




**1-rasm. Mintaqalarni barqaror rivojlanishning asosiy yo'nalishlari<sup>1</sup>.**

Ilmiy adabiyotlarda mintaq va uni tadqiq etuvchi fan tushunchasi mohiyatini talqin etish, uning chegaralari va jamiyat tarkibidagi o'rnini aniqlashda turlicha yondashuvlar mavjud. Eng avvalo, mintaqalarning vujudga kelishi va rivojlanishida hududiy mehnat taqsimotining ahamiyati katta ekanligini ta'kidlab o'tish lozim. Milliy iqtisodiyot hududiy tarkibining asosi ishlab chiqarishni joylashtirish hisoblanadi va u hududiy mehnat taqsimotining rivojlanishi va chuqurlashuvi natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

Xo‘jalikning hududiy tarkibi tarmoq tarkibi bilan uzviy bog‘liq. Chunki har bir tarmoq, korxonalar yoki ishlab chiqarish aniq hududda faoliyat ko‘rsatadi, o‘zining hududiy joylashuviga ega bo‘ladi. Ular o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar esa tarmoqlar, korxonalar joylashgan mintaqalararo iqtisodiy aloqalar esa tarmoqlar, korxonalar joylashgan mintaqalararo aloqalar sifatida namoyon bo‘ladi (2-rasm).



**2-rasm. Mintaqani iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi sxemasi<sup>1</sup>.**

Mintaqaviy iqtisodiy siyosatga ko‘ra, mamlakat bir hududida ishlab chiqariladigan tabiiy resurslar va yer osti qazilmalari respublikamizning boshqa hududlarida aniqlanmaganligi uchun bu turdagi resurslarni qazib olish, ishlab chiqarishga xorijiy va davlat investitsiyalarini jalb etish, soliq imtiyozlar, kreditlar va subvensiyalar va boshqa dastaklar yordamida qo‘llanilishidir. Bu orqali foydali qazilma boyliklari, nodir metallar, qurilish va dastgohsozlik sanoati uchun zarur mahsulotlar, keng turdagi xalq iste‘moli tovarlarini qazib olish, ishlab chiqish va qayta ishlab chiqishga ixtisoslashgan viloyatlarni yanada modernizatsiyalash, zamonaviy texnika va nou-xau bilan ta‘minlanganligini oshirish uchun ustuvor yondashuvlarni joriy etish va amalga oshirishdir.

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

Uzoq muddatli strategiyaning mavjud emasligi “yashil” texnologiyalarni joriy etish va “yashil” iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha tizimli choralar ko‘rishni ta’minlashga imkon bermayapti. 2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini amalga oshirishda quyidagilarni nazarda tutuvchi maqsadli ko‘rsatkichlari tasdiqlangan:

- 100 foizgacha aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini zamonaviy, arzon va ishonchli energiyadan foydalanish imkoniyati bilan ta’minlash;
- sanoat korxonalarini infratuzilmasini modernizatsiyalash, energiya samaradorligini 20 foizdan kam bo‘lmagan miqdorga oshirish hamda sof va ekologik xavfsiz texnologiyalar va sanoat jarayonlaridan yanada keng foydalanish hisobiga ularning barqarorligini ta’minlash;
- energiya samaradorlik va ekologik jihatdan yaxshilangan tavsiflarga ega motor yoqilg‘isi va avtotransport vositalari ishlab chiqarishni hamda ulardan foydalanishni kengaytirish, shuningdek, elektr transportni rivojlantirish;
- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 million gektargacha maydonda tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy etish va ularda yetishtiriladigan ekinlar hosildorligini 20-40 foizgacha oshirish;
- asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘rtacha hosildorligini 20-25 foizgacha oshirishga erishish;

Shu bilan birga, iqtisodiyotning energiya samaradorligi yetarli darajada emasligi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik, texnologiyalar yangilanishining sustligi, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish uchun innovatsion yechimlarni joriy etishda kichik biznesning faol ishtirok etmayotgani milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning ustuvor maqsadlariga erishishga to‘sqinlik qilmoqda.

Mavjud muammolarni hal etish uchun iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida kam uglerod sarflagan holda rivojlanish va resurslarni tejash, samarali va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, barqaror qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirilgan “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini integratsiya qilish orqali tabiiy va energiya resurslaridan foydalanish usullarini tubdan o‘zgartirish talab etiladi.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Atrof-muhit degradatsiyasiga qarshi kurashish, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish va barqaror rivojlanishni rag‘batlantirishning dolzarb ehtiyoji yashil iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash kontekstida ekologik va iqlim inqirozlarining oldini olishda islohotlarning muhim rolga e‘tibor qaratdi. Yashil iqtisodiyotga o‘tish an‘anaviy resurslarni ko‘p talab qiladigan va atrof-muhitga zarar etkazuvchi iqtisodiy modellardan barqaror, inklyuziv va ekologik toza amaliyotlarga paradigma o‘zgarishini anglatadi. Ushbu o‘tish sayyoramiz va uning aholisining uzoq muddatli barqarorligi va farovonligini ta’minlash uchun birgalikdagi sa’y-harakatlar, innovatsion yechimlar va siyosat islohotlarini talab qiladi. Siyosat islohotlari yashil iqtisodiyot kontekstida ekologik barqarorlik va iqlim barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Hukumatlar, siyosatchilar va xalqaro tashkilotlar qayta

tiklanadigan energiya manbalarini ragʻbatlantirish, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va aylanma iqtisodiyot amaliyotini rivojlantirish boʻyicha meʼyoriy-huquqiy bazalar, imtiyozlar va choralarni oʻrganmoqda. Uglerod narxini belgilash, yashil subsidiyalar, ekologik toza qoidalar va barqaror xarid siyosati kabi siyosat tashabbuslari korxonalar va sanoatlarni barqaror amaliyotlarni qabul qilishga va ularning ekologik izlarini kamaytirishga ragʻbatlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Innovatsiyalar va texnologik yutuqlar yashil iqtisodiyot sharoitida ekologik va iqlim inqirozlarining oldini olishda hal qiluvchi komponent hisoblanadi. Barqaror texnologiyalar, aqlli yechimlar, toza energiya muqobillari va tabiatga asoslangan innovatsiyalar resurslarni boshqarishda inqilob qilish, uglerod chiqindilarini kamaytirish, iqlimga moslashish va taʼsirlarni yumshatish choralarni kuchaytirish salohiyatiga ega.

Tadqiqot va ishlanmalarga sarmoya kiritish, tarmoqlararo hamkorlikni rivojlantirish, yashil startaplar va tadbirkorlarni qoʻllab-quvvatlash innovatsiyalarni ragʻbatlantirish va yanada barqaror va barqaror yashil iqtisodiyotga oʻtishni tezlashtirish uchun muhim strategiya hisoblanadi. Manfaatdor tomonlar, hamjamiyat va fuqarolik jamiyati tashkilotlarining samarali ishtiroki yashil iqtisodiyotda atrof-muhit va iqlim barqarorligi boʻyicha islohotlarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Turli manfaatdor tomonlarni, shu jumladan mahalliy hamjamiyatlarni, mahalliy aholi guruhlarini, biznes va notijorat tashkilotlarni qarorlar qabul qilish jarayonlariga, atrof-muhitga oid tashabbuslarni rejalashtirish va amalga oshirishga jalb qilish orqali atrof-muhitni boshqarishda inklyuzivlik, shaffoflik va javobgarlikni taʼminlash mumkin. Manfaatdor tomonlarning ishtiroki ijtimoiy hamjihatlikni ragʻbatlantiradi, marginal guruhlarining imkoniyatlarini kengaytiradi va ekologik siyosat va dasturlarning samaradorligi va qabul qilinishini oshiradi. Yashil iqtisodiyotga oʻtish iqtisodiy paradigmalarni qayta belgilash, barqaror isteʼmol va ishlab chiqarish modellarini ragʻbatlantirish hamda iqtisodiy oʻsishni atrof-muhitning degradatsiyasidan ajratishni oʻz ichiga oladi. Atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy tenglik va iqtisodiy farovonlikni siyosatni ishlab chiqishga integratsiyalash orqali va biznes amaliyoti, atrof-muhitni muhofaza qilish, iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy farovonlik oʻrtasidagi muvozanatga erishish mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-son “2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabr PQ-4477-son “2019 — 2030-yillar davrida Oʻzbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga oʻtish strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida” Qarori <https://lex.uz/uz/docs/-4539502>

3. Xoʻjanova G. tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan. "Экономика и социум" №10(125)-2 2024

4. United Nations Environment Programme. (2022). Digital transformation for environmental sustainability.

5. World Bank. (2021). Environmental monitoring and digital governance.
6. Goodchild, M. F. (2018). GIS and environmental modeling. *International Journal of Geographical Information Science*, 32(1), 1–15.
7. Navoiy viloyati statistika byurosi (2025). Hududiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar hisobot. Toshkent.
8. Tashqi iqtisodiy faoliyat va ekologik monitoring bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami. (2021). Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi.



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhah:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2026-yil, fevral, 2-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



**"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali** 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**